

**SCIENCE  
PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzARB  
muammolari**

Jild 3, Son 10

**2023**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**№ 10 (3)-2023**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### **08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:**

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### **09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукахаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### **10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шуҳрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### **12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:**

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфизилиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амирнов Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа оқтори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаси хузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

#### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент аҳборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази; Тайланова Шоҳида Зайнине – педагогика фанлари доктори, доцент.

---

#### **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

---

**Ижтимоий-туманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари** электрон журнали  
1368-сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.  
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масъулияти чекланган жамият.

#### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўйими психологик хизмат бошлиги.

#### **22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

#### **23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР**

Назаров Насридин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

#### **Таҳририят манзили:**

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

Телеграм канал:

[https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

*Фарманова Гулнара Комилевна*

МЕТОДЫ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА ТЕРРИТОРИИ САМАРКАНДСКОГО СОГДА В КОНЦЕ XIX – НАЧАЛЕ XX ВЕКА ..... 9-18

*Саидбобоева Гулзора Нематжоновна*

ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ АРХИВИ ҲУЖЖАТЛАРИДА ГИДРОЭЛЕКТР СТАНЦИЯЛАРИНИНГ ҚУРИЛИШИГА ДОИР МАЪЛУМОТЛАР (XX АСР 20-ЙИЛЛАРИ ОХИРИ-30-ЙИЛЛАР БОШИ) ..... 19-26

*Ахмедов Шахзод Фарход ўғли*

МУСТАҚИЛЛИККА ЭРИШИШ АРАФАСИДА ЎЗБЕКИСТОНДА ЧОРВАЧИЛИКНИНГ УМУМИЙ ҲОЛАТИ ВА МАВЖУД МУАММОЛАРИ ..... 27-34

*Mirsoatova Sayyora Turg'unovna*

MARKAZIY FARG'ONA NEOLIT JAMOALARI MADANIYATI HAQIDA MULOHAZALAR ..... 35-39

*Янгибоева Дилноза Ўқтамовна*

МУҲАММАД ШАРИФЖОН МАҲДУМ САДРИ ЗИЁНИНГ ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ФАОЛИЯТИ ..... 40-48

*Maҳмудов Эркинжон Асқаралиевич*  
АРАБЛАР ТОМОНДАН ФАРГОНАНИНГ ЗАБТ ЭТИЛИШИ ҲАҚИДАГИ МАЪЛУМОТЛАР ВА УЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ ..... 49-53

*Yoriqulov Nasibulla Xoliyorovich*

O'ZBEKISTON HUDUDIGA G'ARB ME'MORCHILIK AN'ANALARINING KIRIB KELISHI ..... 54-58

*Ergasheva Bahridil G'olibjonovna*

IJTIMOIY TARMOQLARDAGI REKLAMALARNING IJTIMOIY-MA'NAVIY HAYOTGA TA'SIRIGA DOIR MULOHAZALAR (ETNOSOTSILOGIK TAHLIL) ..... 59-65

*Абдухамидов Исломбек Абдухалим ўғли*

МЕҲНАТ МИГРАЦИЯСИНИ ЎРГАНИШДА ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР ..... 66-74

*Boltayeva Moxichehra Jamshid qizi*

XORIJUY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH BO'YICHA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA ERISHILGAN KO'RSATKICHLAR (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA) ..... 75-80

*Кандахаров Анваржон Хасанович, Бабаярова Шахноза Шухратовна*

БУХОРО ХОНЛИГИДА АБДУЛЛАХОН II ДАВРИНИНГ ҚУРИЛИШ ИНШООТЛАРИ

ТАРИХИГА БИР НАЗАР ..... 81-86

### 8.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

*Boltayev Nurali Shiramatovich*

AGRAR OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI ..... 87-93

<i>Дустова Мухайё Худайбердиевна</i>	
РОСТ, УСТОЙЧИВОСТЬ, ДОХОДНОСТЬ: ЭКОНОМЕТРИКА ФИНАНСОВЫХ ПОТОКОВ НА СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ .....	94-102
<i>Ravshanov Malik Naimovich</i>	
МETHODOLOGY FOR DETERMINING THE NEED FOR ECONOMIC RESOURCES OF THE ROAD TRANSPORT COMPLEX.....	103-108
<i>Xushmuradov Oman Namozovich</i>	
TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH ISTIQBOLLARI .....	109-115
<i>Raximjonov Kamronbek Ilxomjon o'g'li</i>	
DAVLAT XARIDLARINI AMALGA OSHIRISHDA KORRUPSIYANI OLDINI OLISH .....	116-121
<b>09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ</b>	
<i>Наврӯзова Гулчехра Нигматовна</i>	
АКАДЕМИК ИБРОҲИМ МЎМИНОВ ИЛМИЙ ЖАСОРАТИНИНГ ЯНГИ ҚИРРАСИ .....	122-128
<i>Talapov Baxriddin Aljanovich</i>	
KONSTITUTSIONIZM DEMOKRATIK RIVOJLANISHNING ASOSI SIFATIDA .....	129-134
<i>Tajibaev Muxiddin Abdurashidovich</i>	
JAMIyat HAYOTIDA SINERGETIK DUNYOQARASH PARADIGMASINI TADQIQ QILISHNING AHAMIYATI .....	135-140
<i>Солиев Икромжон Комилжонович</i>	
РАҶАМЛИ ДУНЁДА ИНСОН ҚАДРИ МУАММОСИ: ИЛМИЙ-ФАЛСАФИЙ ТАЛҚИН ....	141-147
<i>To'xtayev Xakim Primovich</i>	
TASAVVUF TA'LIMOTLARIDA QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASINING NAMOYON BO'LISH XUSUSIYATLARI .....	148-153
<i>Уразалиева Гулшада</i>	
СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ КАТЕГОРИИ «ГЕНДЕР» В СИСТЕМЕ ОБЩЕСТВЕННЫХ ОТНОШЕНИЙ .....	154-160
<i>Гуламова Мавжуда Ташиулатовна</i>	
ИЖТИМОЙ АХЛОҚ МЕЗОНЛАРИНИ ЎРГАНИШДА КУМУШХОНАВИЙ ВАСИЯТНОМАЛАРИНИНГ ЎРНИ .....	161-167
<i>Xoliqov Lazizjon Maxmud o'g'li</i>	
GLOBAL O'ZGARISHLAR SHAROITIDA O'ZBEKISTONNING IJTIMOIY-DUNYOVII DAVLAT SIFATIDAGI MAQOMI (IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL) .....	168-172
<i>Quvonov Sardor Zokirovich</i>	
МА'NAVIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHDA "MANOQIBI SHAYX XUDOYDOD VALIY" ASARINING AHAMIYATI .....	173-178
<b>10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ</b>	

*Халметова Мехрибону Гайратжоновна*  
**ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ДЕТСКОЙ ЛЕКСИКИ В НЕМЕЦКОМ И УЗБЕКСКОМ  
ЯЗЫКАХ ..... 179-186**

*Abdijabbor Amanov*  
**MURAKKAB SINTAKTIK BUTUNLIKNING MATNNING KATTA BIRLIGI SIFATIDA O'ZIGA XOS  
XUSUSIYATLARI ..... 187-193**

*Umarova Xurshida Zikiryoxonovna*  
**AQSH ADABIYOTIDA PSIXOLOGIK ROMAN TADRIJI ..... 194-201**

*Odinayev Bekqul Imamqulovich*  
**LISONIY SHAXS: TA'RIF, TAHLIL, TALQIN ..... 202-210**

*Jaloliddin Jo'rayev, Jamoliddin Jo'rayev*  
**"DEVONI LUG'ATIT-TURK" VA "GULSHAN UL-ASROR" DAGI QADIMGI TURKIY SO'ZLAR  
QIYOSI ..... 211-217**

*Saidov Akmal Azimovich*  
**"TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI" YO'NALISHIDA TAHSIL OLAYOTGAN TALABALARDA  
MADANIYATLARARO MULOQOT KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH ..... 218-224**

## **12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР**

*Qosimov Botirjon Ma'rufjon o'g'li*  
**SUDYALAR OLIY KENGASHINI SUDYALARARNING CHINAKAM HAMJAMIYATI ORGANIGA  
AYLANTIRISHNING KONSTITUTSIYAVIY MASALALARI ..... 225-231**

*Жўраев Дилмурот Мухторович*  
**МАЪМУРИЙ ВА ОММАВИЙ ҲУҚУҚИЙ МУНОСАБАТЛАРДАН КЕЛИБ ЧИҚАДИГАН  
НИЗОЛАРНИ СУДДА ҲАЛ ЭТИШДА КЕЛИШУВ ТАРТИБ-ТАОМИЛЛАРИНИ ҚЎЛЛАШГА  
ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ АЙРИМ МАСАЛАЛАР ..... 232-240**

*Эшонхонов Камолхон Маматхонович*  
**БАНД СОЛИНГАН МУЛКНИ ҚОНУНГА ХИЛОФ РАВИШДА ТАСАРРУФ ЭТИШ ЖИНОЯТИНИ  
КВАЛИФИКАЦИЯ ҚИЛИШДАГИ АЙРИМ МАСАЛАЛАР ..... 241-246**

*Бўриев Одил Қобилович*  
**КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ КУРАШ – ИНСОН ҚАДРИНИ ЮКСАЛТИРИШ  
МЕЗОНИДИР ..... 247-253**

## **13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

*Umarzoda Shohruh Azamat o'g'li*  
**"ALGORITMIK TILLAR VA DASTURLASH ASOSLARI" FANI MAZMUNI VA O'QITISHNING  
MAVJUD HOLATI ..... 254-259**

*Эргашева Гули Исмоил кизи, Инамова Гуллола*  
**ЗНАЧИМОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ ФОНЕТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В ПРОЦЕССЕ  
КОММУНИКАЦИИ ..... 260-265**

---

<i>Bobomurotov Sirojiddin Mengziyo o'g'li</i>	
BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI VARIANTIV TUSHUNCHALAR ASOSIDA O'QITISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING O'RNI .....	266-271
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li</i>	
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI .....	272-277
<i>Ботиров Азизбек</i>	
РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ: АНАЛИЗ И ПЕРСПЕКТИВЫ .....	278-283
<i>Эшбеков Сардор Журакулович</i>	
ЁШЛАРНИ ҲАРБИЙ ВАТАНПАРVARЛИК РУХИДА ТАРБИЯЛАШ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШИНГ МУҲИМ ОМИЛИ .....	284-288
<i>Abdullaeva Feruza Suyunovna</i>	
KASBIY TERMINOLOGIYANI O'RGATISHDA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARNING O'RNI .....	289-293
<i>Ortiqov Oybek Rustamovich</i>	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNING TASHKIL ETILISHI.....	294-298
<i>Erhanova Nasiba Absayitovna</i>	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINING "TIL VA NUTQ" MARKAZIDA INNOVATSION FAOLIYAT OLIB BORISH .....	299-303
<i>Robiya Mannopova</i>	
INNOVATIVE COMPETENCY AS A CORE COMPETENCE OF FOREIGN LANGUAGE TEACHERS.....	304-308
<i>Qodirov Olim Odilovich</i>	
REFLEKSIV YONDASHUV, UNING MOHIYATI VA KONSEPTUAL ASOSLARI.....	309-314
<i>Xaydarova Mahliyo Xabibullayevna</i>	
TARBIYA FANINI O'QITISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	315-322
<i>Xasanova Gulsanam Xusanovna</i>	
IJTIMOIY-MADANIY FAOLIYATDA MAGISTRATURA TALABALARINING TASHKILIY- BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI .....	323-328

**Quvonov Sardor Zokirovich**  
[quvonov2017@mail.ru](mailto:quvonov2017@mail.ru)

### **MA'NAVIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHDA "MANOQIBI SHAYX XUDOYDOD VALIY" ASARINING AHAMIYATI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Markazi Osiyolik o'rta asrlar tasavvuf sufiyalaridan Shayx Xudoydod Valiy meroslarida bayon etilgan tarixiy manba va hujjatlar o'rganilib, ulardagi ma'naviy tarbiyani shakllantirishga doir masalalar ochib berilgan. Xususan, Shayx Xudoydod Vali manoqiblarida kelthirilgan adolatparvarlik, millatparvarlik va komillikkha intilishga doir qimmatli fikrlar keltiriladi. Tadqiqot davomida bugungi globallashuv sharoitida ma'naviy tarbiyaning qanchalik ahamiyatliligi va dolzarbliji bo'yicha xulosalar chiqarildi.

**Kalit so'zlar:** adolat, halol luqma, tolerantlik, Manoqib, mehnatsevarlilik, tarbiya, olimlik, Yassaviylik.

---

**Kuvonov Sardor Zokirovich**  
[quvonov2017@mail.ru](mailto:quvonov2017@mail.ru)

### **THE SIGNIFICANCE OF THE WORK OF "MANOQIBI SHEIKH KHUDYDAD VALY" IN FORMING SPIRITUAL EDUCATION**

**Abstract.** In this article, the historical sources and documents described in the heritage of Sheikh Khudoidad Vali, one of the Sufis of the Central Asian Middle Ages, are studied, and the issues related to the formation of spiritual education in them are revealed. In particular, valuable ideas about justice, nationalism and striving for perfection are presented in the manoqibs of Sheikh Khudoidad Vali. In the course of the research, conclusions were drawn on the significance and relevance of spiritual education in today's globalization conditions.

**Key words:** justice, honest bite, tolerance, Manoqib, hard work, education, science, Yassaviity.

---

**Кувонов Сардор Зокирович**  
[quvonov2017@mail.ru](mailto:quvonov2017@mail.ru)

### **ЗНАЧЕНИЕ РАБОТЫ «МАНОКИБИ ШЕЙХА ХУДИДАД ВАЛЫ» В ФОРМИРОВАНИИ ДУХОВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

**Аннотация.** В данной статье исследуются исторические источники и документы, описанные в наследии шейха Худоидада Вали, одного из суфиеев Среднеазиатского Средневековья, и раскрываются вопросы, связанные с формированием в них духовного образования. В частности, ценные идеи о справедливости, национализме и стремлении к совершенству представлены в манкибах шейха Худоидада Вали. В ходе исследования были сделаны выводы о значимости и актуальности духовного образования в современных условиях глобализации.

**Ключевые слова:** справедливость, честный прикус, толерантность, Манокиб, трудолюбие, образование, наука, Ясавииты.

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I10Y2023N25>

Ma'lumki, milliy va diniy qadriyatlar asrlar davomida shakllanib, o'zaro chambarchas aloqada bo'lgan va ularni bir-biridan ayri holda tasavvur qilish qiyin. Islom dinining ajralmas qismi sanalgan tasavvuf ta'limoti jamiyat hayotida dinni mustahkamlash, targ'ib etish, islomiy ilmlarni rivojlantirishda o'ziga xos mavqeiga ega bo'ldi. XVI asrga kelib, tasavvuf ta'limoti butun islom olamida, ayniqsa, Markaziy Osiyoda yuksak darajada rivojlandi va mamlakat ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayatda muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Markaziy Osiyoda vujudga kelgan Yassaviya (XII asr), kubroviya (XIII asr) va xojagon-naqshbandiya (XII asr) tariqatlari vakillari ijtimoiy-siyosiy hayatda faol ishtirok etib, ayrim davlat rahbarlarining alohida e'tirofiga sazovor bo'ldi. Bu tariqatlar o'z taraqqiyoti davomida mahalliy urf-odat va madaniyatga islomiy an'analarni moslashtirish hamda siyosiy hayatda yetakchilik qilishga intilganliklari bilan ajralib turishlarini alohida qayd etib o'tish lozim.

Karmanalik Shayx Xudoydod Valiy hayoti va faoliyatini aks ettiruvchi muhim manbalardan biri "Manoqibi Shayx Xudoydod Valiy" asaridir. Ushbu asar Shayx Xudoydod Valiyning yaqin xalifalaridan bo'lgan Mavlono Sayyid tomonidan XVI asrda yozilgan. Asarning aslidan Muhammad Ashur Nurmuhammad o'g'li 1912 yilda an'anaviy nasta'liq uslubida nusxa ko'chirgan. Ushbu nusha Shayx Xudoydod Valiyning avlodlaridan biri Samarqand davlat arxitektura va qurilish instituti professori, texnika fanlari doktori Saidmaqsud Razzoqovning shaxsiy kutubxonasida saqlanadi.

Birinchi sahifada asarning mazmuni haqida ma'lumot beriladi. Asar asosan fors tilida yozilgan bo'lsa-da, unda turkiy va arabiylar ham uchraydi.

Matn ichida Shayx Xudoydod Valiyning saj, bayt, hikmat, g'azal, naql, hikoyat sarlavhalari ostida turkiy va forsiy tillarda yozgan badiiy ijod namunalari keltirilgan. Qur'oni Karimdan iqtiboslar, hadisi shariflardan namunalar beradi hamda ayrim qissalarga murojaat etadi. Shuningdek, Shayxning Samarqanddagi faoliyati uning ayrim tarixiy shaxslar bilan bo'lgan munosabatlari hamda Shayx Xudoydod Valiy ijodiga mansub she'r, g'azallar va hikmatlari o'rinn olgan.

Ushbu faktlarga tayanib aytish mumkinki, Shayx Xudoydod Valiy o'z faoliyati davomida she'riyat bilan ham jiddiy shug'ullangan va uning o'ziga xos qonun-qoidalarini o'zlashtirib, o'tmish hamda o'ziga zamondosh bo'lgan shoirlarning asarlaridan habardor bo'lgan. Shu bois u o'z qarashlarini nazm shaklida bayon qilgan. Shayx Xudoydod Valiyning she'riy merosi alohida devon shakliga keltirilgani haqida ma'lumot uchramaydi. Lekin uning she'rlari "Manoqib"lar tarkibiga kiritilgan. Bu manbada keltirilgan she'rlari esa turkiy va forsiy tillarda yozilgan bo'lib, ular Shayx Xudoydod Valiyning har ikki tilda erkin ijod qilganligidan dalolat beradi. Yozuvchi Abdurauf Fitratning Shayx Xudoydod Valiyni "zullisonayn shoir"[1] deb, o'z tadqiqotida qayd etishi ham beziz emas. Shayx Xudoydod Valiyning bizga ma'lum bo'lgan she'rlari asosan g'azal janrida bo'lib, aksariyati aruz vaznida bitilgan. Shayx Xudoydodning ma'naviy merosi keyingi bo'limlarda alohida tahlil etiladi.

Asarda Shayx Xudoydod ramziy ma'noga ega bo'lgan quyidagi jumlalarni keltiradi: "G'ijduvonda o'qiyotgan paytlarimda uch yil bir po'stinni kiyganman. Na shalvorim bor edi, na chopon va bir ko'yakning yoqasini topib olib, o'z bo'ynimga ilgan edim. Toki birov ko'rib menda ko'yak yo'qligini gumon qilmas edi. Tanqisligimni hech kimga aytmay sir tutardim. Zeroki, oshiqning qanchalik darajada kuyishi va buni sir tutishi yaxshidir"[2:53].

Bundan quyidagi fikrlarni ilgari surish mumkin. Birinchidan, uch yil bir pustinni kiyishi Shayx Xudoydod Valiyni Yassaviya tariqatini uch yil davomida qunt bilan o'rganganligiga ishora

qiladi. Ikkinchidan, bir ko'ylakni yoqasining buyniga ilishi esa uni ushbu tariqat yo'lida sobitqadamlik bilan olg'a intilganligini ko'rsatadi. Uchinchidan, o'z tanqisligini hammadan sir tutishi – tasavvuf an'analariga muvofiq bo'lgan o'zini oshkor qilmaslik qoidalari bilan bog'liq.

Shayx Xudoydod Valiy hayoti davomida mol-dunyo to'plashga, boylik orttirishga urinmasdi. Uning fikricha, mol-dunyo, boylik o'tkinchi bo'lib, Allohning vasliga yetishish uchun bu dunyo noz-ne'matlaridan voz kechishni afzal bilardi. Uning bu qarashlari she'rlarida ham o'z aksini topgan:

*Bor jonin tark aylabon, istab seni topsa bo'lur,  
Jumlaning hubbin qo'yubon, ham seni sevsə bo'lur!  
Sensiz nege kerak, bu tanda joni bir zamon,  
Sen bilan dunyovu uqbo har nekim desa bo'lur![2:76]*

Bu kabi dunyoqarash o'rta asrlar Yassaviylik jamoalari uchun xos bo'lib, bunda insonning poklanishi, noplak yo'llar bilan mol-dunyo orttirish yo'lida qilgan gunohlarini yuvish, insof va halollikka chaqirish maqsadida targ'ib qilingan. SHuningdek, Shayx Xudoydod Valiyning faoliyatida an'anaviy Yassaviya g'oyalari, xususan, tarki dunyochilikdan farqli ravishda jamiyat hayotiga faol aralashish kuzatiladi. Jumladan, Shayx Xudoydod Valiy oddiy xalq ahvolini yaxshilash, ularni halol mehnat qilishga va shu orqali moddiy ahvolini yaxshilashga chorlash borasida tashabbuslar ko'rsatib, atrofiga odamlarni to'playdi va ular bilan birgalikda bo'sh yotgan yerkarni o'zlashtirishga harakat qiladi. Masalan, "...va aytur edilarki, ziroat uchun biror cho'lni ixtiyor qilsak va oxirida u sahroni ishlab chiqsak. U yerda yetilgan hamma qovunlarni vaqf qilamiz, har kim undan tatib ko'rishni va yeyishni xohlaydi. ...bas, janobi hazrat Xudovandga tavakkal qilgandan keyin, dehqonchilik qilishni o'zimiz lozim topdik. Va dehqonchilik bilan panoh topdik"[2:78]. Ushbu keltirilgan ma'lumotlarda Shayx Xudoydod Valiyni jamiyat ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotini imkon qadar yaxshilash borasidagi qilgan sa'yи harakatlarini ko'rsatib beradi. Xususan, Shayx Xudoydod Valiy faoliyatida quyidagi masalalarni yechish maqsad qilingan: birinchidan, bo'sh yotgan yerkarni o'zlashtirish; ikkinchidan, insonni mehnat orqali ham ma'nani, ham jisman tarbiyalash; uchinchidan, jamiyat va inson uchun moddiy manfaat keltirish.

Bundan tashqari muhtojlarga yordam berishni Shayx Xudoydod Azizon o'zining asosiy vazifalaridan biri deb hisoblagan. U quyidagi voqeani bayon qiladi: "Bir zamonlar Karmana viloyatida bo'lganimizda, do'stlarimizdan biri qarzdor bo'lib qoldi va uning qarzi ming tangadan oshib ketdi va u qarzidan qutilishdan ojiz edi. Va men uni bu kulfatdan xalos etadigan do'stni ko'rmadim. Unga qarz berganlarni izlab topdim va men uchun dunyo tashvishlaridan nima bo'lsa, o'z qozon, oftoba, kiyimlarimni, ayolim va bolalarim kiyimlarini baholadim va tushgan pullarning barchasini qarzdorlarga berdim va u qarzidan xalos bo'ldi"[2:26].

Ushbu ma'lumotdan ko'rinish turibdiki, Shayx Xudoydod Valiy har qanday holat bo'lmasin, muhtojlarga yordam berishni o'zining burchi deb bilgan va bu esa oddiy xalq oldida uning mavqeining yanada oshishiga sabab bo'lgan. Zamona hukmdorlari esa uning bu mavqeidan o'z siyosiy maqsadlarini amalga oshirishda foydalanishga harakat qilgan.

Shayx Xudoydod Valiy hayoti davomida muttahamlik, o'g'rilik kabi illatlarga qarshi kurash olib borgan. Aytadi: "Buyurib turamanki, biznikiga makruhot (harom) va mujrimot (jinoiy) va shunga o'xshash ish bilan shug'ullanuvchilar kelmasinlar". Asar muallifi barcha

muridlariga “Ozar, turk, fors, arabu ajam Hazrati Eshon (Shayx Xudoydod) oldida teng edi va har biriga ta’zim va ikrom qillardilar”, deb yozadi. Bu esa bugungi mustaqil mamlakatimizda tinchlik va barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan davlat siyosatining asosiy yo’nalishlaridan biri bo’lgan millatlararo totuvlikning yaqqol namunasi bo’lib asrlar davomida xalqimizga xos fazilatlarini o’zida namoyon etib kelmoqda.

“Va yana aytur edilarki, bir kuni jami do’stlar bilan sayr qillardik, havo issiq va biz piyoda edik. Va har kishining kiyimi kirona edi. To’satdan ot-aravada bir kishi chiqib qoldi. Aravada ikki-uch yalang’och bola ko’rinardi. Bu holni ko’rib, ularga rahmim keldi va o’z kiyimimni unga berdim. Va barcha do’stlarimga o’z kiyimlarini u kishiga berishlarini buyurdim. Uning aravasi to’ldi va shuningdek, ishq-muhabbat madadi bilan birovga yordam berdik va bu bilan o’zimiz ham yo’lda shitob bilan yurdik”[2:28].

Shayx Xudoydod Valiy yashagan joylarida nafaqalar va oziq-ovqatni qat’iy hisob bilan birinchi navbatda och qolgan, nochor ayollar va bolalarga, mayib-majruhlarga berishni joriy qilgan. Keltirilgan ushbu jumlalar Shayx Xudoydod Valiyni kambag’alparvar shaxs bo’lib, har doim o’zgalar manfaatini o’z manfaatidan ustun qo’yanligini ko’rsatib va bugungi mustaqil davlatimiz ijtimoiy siyosatining asosiy mohiyatini tashkil etadigan “aholini kuchli ijtimoiy himoyalash” tamoyili bilan mantiqan bog’lanadi.

Shayx Xudoydod Valiy tariqatda shogirdlar masalasiga ham alohida e’tibor qaratgan va ma’rifat bosqichini asosiylaridan biri sifatida e’tirof etgan. Ushbu bosqichda shogirdlariga sahil hadislardan, Qur’on oyatlaridan saboq bergan. Bunda mushohada qilish uslubi muhim o’rin tutgan. “Manoqib”da Shayx Xudoydod Valiy yashagan muhit, Dashti Qipchoqdan kirib kelgan ko’chmanchi aholining o’troqlashish jarayoni, savodlilik darajasi haqida ham ma’lumotlar uchraydi. Xususan, muallif Shayx Xudoydod Valiy tilidan quyidagi jumlalarni keltiradi: “Biz hozir bandalarga xos bo’lgan ta’lim talabini pasaytirib yuborganmiz, nima uchun o’troq bo’layotgan xalqlar orasida donishmandlar yo’q”[2:70],-deb kuyunadi.

Shayx Xudoydod o’z muridlariga “Olimlik bu amaliyot bilan ilmning birlashmasi” deb tushuntiradi. SHu bois o’zi o’qitayotgan talabalar bilan ham amaliy, ham nazariy mashg’ulotlar olib borar, ularning bilim darajasini tekshirib turardi. Xususan, manbada ustoz va shogird o’rtasida bo’lib o’tgan savol-javob quyidagicha keltiriladi: “Mantiq nimani o’rgatadi? ... Mantiq – bu qurol, vosita, zehnni xato fikrlardan qo’riqlaydi”, - degan javobni oldi. Shuningdek, Shayx Xudoydod talabalarga har doim odamlar, do’stlar orasida bo’lishni ta’kidlardi. Zeroki, kishi odamlardan xoli bo’lsa, uning holi zaif va ishlari nomaqbuldir. Undan xalqqa kam foyda tegadi va anjumanda ham xilvatda bo’ladi. Aytur edilarki, xaloyiq oldida bu kishi jamiyatsizdir va u bundan huzur qiladi. Agar bundan zahmat cheksa, u kamolotga erishmaydi va irshodlikka loyiq emas[2:38],-deydi.

Haqiqatan ham tasavvufga oid tadqiqotlar va asarlarda keltirilganki, ayrim tasavvuf vakillarining xalqdan ajralib, xilvatda bo’lishi, chunki xalq bilan band bo’lgan odam Xoliqni unutadi, xalqdan ajralmaguncha Xoliq diydoriga yetishish mumkin emas deb xilvat va go’shanishinlikni ixtiyor etgan Shayxlarning dunyoqarashi Payg’ambar (s.a.v.) sunnatlariga ham muvofiq emas. Shuning uchun Hazrat Bahouddin Naqshband ham ikki tomonni birlashtirib, ham xilvat sari ruhiy ehtiyojni qondirish va ham jamoat ichida yashab, elga foyda keltirish yo’lidan borganlar[3:87]. Shayx Xudoydod Valiy faoliyatida ham Naqshbandiylik tariqati vakillarining tarbiya usullarining Yassaviya tariqatiga joriy qilganligini ko’rishimiz mumkin.

Bu holat XV-XVI asrlarga kelib Yassaviylikning asosiy g'oyalaridan bo'lgan tarki dunyoqchilik, jamiyatdan yiroqlashish tushunchalarini ijtimoiy-siyosiy vaziyatga qarab ma'lum ma'noda o'zgartirdi. Shayx Xudoydodning bunday fikrlari Yassaviyshunoslikda yangi bir o'ziga xos qarashni ifodalaydi.

Shayx Xudoydod Valiy jismoniy jihatdan ham baquvvat, pahlavon kurashchi bo'lib, mamlakatda kurash bo'yicha o'tkazilgan musobaqalarda qatnashib, hukmdorlar e'tirofiga sazovor bo'lganligi to'g'risidagi rivoyatlar ayrim badiiy asrlarda ham aytib o'tiladi[4:122]. SHuningdek, u tasavvuf bosqichlarini to'liq bosib o'tish maqsadida Karmanadan Buxorogacha yalang oyoqda, piyoda borishga ahd qiladi. Safar qilish uchun sovuq qish payti tanlanadi va inson qadami yetmagan baland-pastlik yo'llar, Qiztogi orqali o'tishga qaror qiladi. Yo'lida ko'p voqeя va hodisalarga guvoh bo'ladi hamda safari muvafaqqiyatlari yakunlanadi. Shayx Xudoydod Valiy ham tasavvuf tariqatida fano darajasiga yetgan shaxslardan biri hisoblangan. Bu haqda "Lamahot" asarining muallifi Olim Shayx Azizon ham eslatib o'tadi.

Shayx Xudoydod tasavvufning Yassaviya-jahriya tariqatiga doir g'oyaviy ta'limotining asosiy yo'nalishlari, mazmun mohiyatini ochib berishga uringan. Bu o'zbek, fors tillarida yozilgan she'rlari, xikmatli so'zлari va g'azallarida, she'riy merosi mavjud yozma manbalar hamda amaliy harakatlarida o'z ifodasini topgan.

Tasavvufiy jamiyat hayotida ahloqiy me'yorlarni tartibga solish bilan birga ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy jarayonlarga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Uning vakillari orasidan ko'plab olimlar, shoirlar, qiyin siyosiy vaziyatlarda xukmdorlarning mohir maslahatchilari, xalq farovonligi yo'lida xizmat qiluvchi fidoiy shaxslar yetishib chiqdi.

Boshqa islom mintaqalarida bo'lganidek, Movarounnahr diyorida ham tasavvuf tarbiyasi va uning to'rt bosqichi komil insonni tarbiyalash uslubi sifatida qo'llanib kelgan. Naqshbandiya va Yassaviya tariqatlari bu sohada asosiy maktablar hisoblangan. Bu tarbiya usullari 92 urug'dan tarkib topgan turkiy qavmlarning, shuningdek, tojik va boshqa xalqlarning ahil-inoq, o'zaro hurmatda yashab kelishida, axloqiy-maishiy jihatdan kamol topishida, kasb-hunar o'rganib, ilm egallashida ilhomlantiruvchi va to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi ma'rifat maskanlarining vujudga kelishiga sababchi bo'lgan.

**Xulosa** qilib aytganda, Shayx Xudoydod Valiy hayoti va faoliyatini yoritib beruvchi "Manoqibi Shayx Xudoydod Valiy" asari o'sha davr ijtimoiy-siyosiy hayoti va xalqning ma'naviy dunyoqarashini o'rganishda katta ahamiyat kasb etadi. Asarda, shuningdek, Hazrat Shayx Xudoydod Valiy faoliyati bilan bog'liq boshqa manbalarda uchramaydigan ayrim joy nomlari va tarixiy shaxslar nomlari ham keltiriladiki bu ushbu asarni yanada kengroq tadqiq qilish lozimligini ko'rsatadi. Mazkur manba Yassaviya tariqati mohiyatini, uning sir-asrorlarini tushunishda ham katta ahamiyatga ega. "Manoqibi Shayx Xudoydod Valiy" asari milliy maf-kuramizning asosiy masalalaridan biri bo'lgan har tomonlama yetuk shaxs, ya'ni komil inson tarbiyalash uchun zarur bo'lgan ma'rifiy va ma'naviy mavzularda so'z yuritiladi. Shuning uchun ilk bor ushbu tadqiqot jarayonlariga jalb etilgan bu asar millatimiz va vatanimizning keyingi taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Uni o'rganish, tadqiq etish va keng jamoatchilikka yetkazish maqsadga muvofiqdir. Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, asarning yagona nusxasidan ko'paytirib, uni Sharqshunoslik institutining Sharq qo'lyozmalari Markazi orqali uning o'zbek, rus, ingliz tillarida tarjima nashrlarini amalga oshirish lozim.

**Адабиётлар/Литература/References:**

1. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. II-жилд. Илмий асарлар. Т.: Маънавият, 2000. – Б.36.
2. Улуғ авлиё Шайх Худойдод Вали (Маноқиб). Форс тилидан Сайфуддин Сайфуллоҳ таржимаси. Т.: Ўзбекистон, 2017. – Б.53.
3. Комилов Н. Тасаввуф. Мовароуннахр – Ўзбекистон, 2009. – Б. 87-93.
4. Бўлдиева С. Нурота. Эссе. –Т.: Шарқ, 2003. –Б.122

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***№ 10 (3) – 2023***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.**

**Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масъулияти чекланган жамияти**

**Таҳририят манзили:**  
100070. Тошкент шаҳри, Яққасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).